



GULXANIY MASALLARINING G'OYAVIY- BADIY XUSUSIYATLARI

Tojamatova Sarvinoz Rustambek qizi¹, Abduhoshimov

Abdunozim²

¹Andijon davlat universiteti filologiya (o'zbek tili) fakulteti III bosqich talabasi, ²Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti, IV bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5716622>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-noyabr 2021
Ma'qullandi: 10- noyabr 2021
Chop etildi: 15- noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

„Zarbulmasal“,
masal, asarning yozilish
tarixi, asardagi obrazlar

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada „Zarbulmasalning“ yozilish tarixi, undagi obrazlar va ularning g'oyaviy –badiiy xususiyatlari to'g'risida so'z boradi

Gulxaniy ijodiy faoliyatidagi eng muhim fazilat shundan iboratki, u o'z davrining folklorshunosi sifatida o'zbek xalqining beqiyos donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to'plab, mashhur „Zarbulmasal“ asarini yaratdi. Gulxaniy asarning kirish qismida uning yozilish sababi ustida to'xtalib, xon saroyidagi she'riy majlislarning birida masal (maqol, matal, hikmat)larning badiiy ijoddagi o'rni haqida gap ketganligini qayd etadi. Xonning nazari Gulxaniyga tushib, uni qoshiga chaqiradi va „...bu zarbulmasallarni necha hikoyatlar orasida aql-u donishing yetishicha tartib ver“,— deb buyuradi. Gulxaniy darhol javob beradi: „Ey shohi jahonpanoh, tojikning bir masali bordurki, az ko'za hamon tarovadki, dar o'st (Ko'zada bori to'kiladi) „Alar (ya'ni xon) aydilarki, „O'zbekning bir maqoli bordurki, „Eshakiga

yarosha tushog'i".¹ Bu suhbatdan so'ng Gulxaniy „amirning amrlarini vojib bilib, zarbulmasal yo'lida sobit qadam bo'ldi va Yapaloqqush va Boyqushning qudaliklari orasida to'rt yuz zarbulmasali „avommunos“ni bayon qiladi. Asarning kompozitsiyasi ham, sujeti ham, tili ham anchagina murakkab bo'lishiga qaramay, tushunilishi jihatidan sodda va maroqlidir. Bunga masal, maqol, hikmat va matallardan o'rinli foydalanish evaziga erishilgan. „Zarbulmasal“dagi hikoya ichida hikoya yo'sinida berilgan „Maymun bilan najjor“, „Tuya bilan bo'taloq“, „Toshbaqa bilan chayon“ kabi masallar zimmalariga yuklangan badiiy vazifalaridan tashqari ham mustaqil estetik qimmat kast etib, asarning umumiy jozibasini oshirishga xizmat qilgan. „Zarbulmasal“da qushlar timsolidan foydalanib, insonlar va ular

¹ Gulxaniy. Zarbulmasal-T.:1958



orasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan. Asarda inson ruhiyati tasviri alohida berilmay, qushlarning o'zaro suhbatlari zamiriga singdirilgan. „Zarbulmasal“da uchraydigan badiiy obrazlarni: a) qushlar obrazlari; b) hayvon-hasharot obrazlari; v) odam obrazlari tarzida uchga bo'lish mumkin. Qushlar obrazlari asarning bosh maqsadini ifodalashga yo'naltirilgan bo'lib, qolgan ikki guruhdagi qahramonlar, asosan, ularning o'zaro suhbatlari asnosida namoyon bo'ladi. Yozuvchi qushlar vositasida ularning prototiplari bo'lmish odamlarga xos jihatlarni aks ettirgan bo'lsa- da, ayni vaqtda, har bir qushga xos bo'lgan individual belgilarni berishni ham yoddan chiqarmaydi. Ko'pincha, qushlarning otida ularning fe'li aks etadi. Chunonchi, Ko'rqushning ko'rliigi, Boyqushning sovuqnafas va xasisligi, Kordonning korchalonligi, Kuykanakning kichik jussali hamda kuyunchakligi laqab bilan tabiatning mos kelishiga misol bo'la oladi.

Yapaloqqush bilan Boyqush asardagi markaziy qahramonlardir. Asarning sujeti ana shu timsollarning o'zaro quda-anda bo'lishiga bog'liq voqealar asosida rivojlanadi. Yapaloqqush — bir qadar davlatmand kimsa timsoli. U o'zidan ham sarmoyaliroq, taniqliroq kishi bilan quda bo'lishni orzu qiladi. O'zidan balandlarga intilgani uchun ham o'g'liga Kulonkir sulton

deb ism qo'yadi, Boyqush bilan quda bo'lishga urinadi. Adib Yapaloqqush misolida qo'lidan kelmaydigan ishga urinadigan, boylig-u shon-shuhratga mukkasidan ketgan kimsa obrazini yarata'di. U o'z holini bilmaydi, bildirganlarida esa tan olgisi kelmaydi. Yapaloqbibining: „O'g'limning asbobi kulangirliigi minqori bilan changalidan ma'lum va ravshan emasmu?!“² — degan gaplarida uning shaxsiyatiga xos maqtanchoqlik, zo'ravonlik sifatlari ma'lum bo'ladi. Kulonkir sulton ham onasiga munosib farzand. U — qushlar shohining pahlavoni. Kuch-qudrati bilan o'zgalarda dahshat uyg'otishga mohir. Lekin yaxshi tarbiya ko'rmagani, tabiatida yetuklik bo'lmagani uchun ham Ko'rqush unikiga borganda mehmonga qanday muomala qilishni bilmasligini namoyon qiladi. Asardagi mezbonlik tutumi tasviri Kulonkir sulton va uning xizmatkorlarining odamgarchiligiga baho berishga asos bo'ladi. Mehmonga sarqit ovqat taklif etishi, uning ham ko'pini o'zi yeb qo'yishi singari hollarda befarosat, yebto'ymas, tarbiyasiz Kulonkirning asl qiyofasi namoyon bo'ladi.

Gulxaniy masallari yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirish, ulardagi badiiy-estetik didni hamda ijodiy imkoniyatlarni tarbiyalashda beqiyos hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulxaniy. Zarbulmasal-T.:1958
2. O'zbek adabiyoti.3-jild.-T.:1959

² Gulxaniy. Zarbulmasal-T.:1958